

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024  
5-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

|  |   |
|--|---|
| <b>Камолахон Аброрхонова, Шукуронахон Меликузиева</b>  | <b>Mirzaolim Mamatqulov</b>   |
| ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ..... 656  | SINFDAN TASHQARI VAQLARDA O'QUVCHILARDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI ..... 736                                |
| <b>Mohichekra Boltayeva</b>  | <b>Muattar Nishonova</b>  |
| TARIX TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGI TUZILMASI ..... 658                                       | ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASHDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ..... 739   |
| <b>Abdusalim Kenjaboyev</b>  | <b>Dilfuza Nurmanova</b>  |
| MAGISTRATURA TA'LIM BOSQICHIDA BO'LAJAK TA'LIM MENEJERINI KASBIY TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK TAMOYILLARI ..... 662      | SINF JAMOASI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA) ..... 743           |
| <b>Navro'zbek Qadamov</b>  | <b>Bobir Nusharov</b>   |
| O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAKTABNING O'ZARO TA'SIRI ..... 667   | TASVIRIY SAN'ATDA DASTGOHLI RANGTASVIRNING O'RNI VA AHAMIYATI ..... 749   |
| <b>Dilfuza Amrieva</b>   | <b>Aziza Olimova</b>  |
| IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGAGIK OMILLARI ..... 673               | TALABALARDA TARIXIY HODISALARINI TAQQOSLASH ORQALI TAHLIL QILISH VA MANTIQIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ..... 753                       |
| <b>Noiba Sobirova</b>  | <b>Oygul Ashurova</b>   |
| ONA TILI DARSLARIDA ETIMOLOGIK TAHLIL ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH SAMARDORLIGI ..... 677                                | DUNYO PEDAGOGIK TADQIQOTLAR TIZIMIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI MODERNIZATSIIYA QILISH ASOSIDA TABIATGA ESTETIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH ..... 756 |
| <b>Abdijabbor Abjalov</b>  | <b>Aysha Qo'chgorova</b>  |
| DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIGA "ELEKTRON HUKUMAT" NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI XUSUSIDA ..... 681                | O'SMIR QIZLARNING DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ..... 760   |
| <b>Abduraim Ulug'ov</b>  | <b>Mahliyo Sattorova</b>  |
| JAMIyat IJTIMOIY-SIYOSIY HAMDA MA'NAVIY-AXLOQIY HAYOTINI RIVOJLANTIRISHDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING O'RNI ..... 684 | BO'LAJAK MUHANDISLARINI MUSTAQIL TA'LIM OLISH ORQALI KASBIY-IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA QARATILGAN NAZARIYALAR ..... 764                         |
| <b>Shahnoza Abdug'aniyeva</b>  | <b>Shoxrux Mirzayev</b>   |
| BIOLOGIYA TA'LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA UNING ASOSIY OMILLARI ..... 690  | OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMIGA OID ME'YORIY-HUQUQIY HUJJATLARNING ROLI VA AHAMIYATI ..... 769                                |
| <b>Abdurashid Ashirov</b>  | <b>Alisher Tilakov</b>  |
| KASB TA'LIMIDA O'QUV PEDAGOGIK FAOLIYAT SIFATINI TA'MINLASH OMILLARI ..... 694   | SPORT MASHG'ULOTLARIGA O'RGATISHNING BOSQICH VA USUBLARI ..... 772  |
| <b>Ziyoda Farxodova</b>  | <b>Qizlarxon Turdaliyeva</b>  |
| ODAM SAVDOSIDAN JABR KORGAN ERKAKLAR VA AYOLLARNING IJTIMOIY PORTRETLARI: GENDER FARQLARINING TAHLILI ..... 698        | O'QUVCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MAHORAT SIFATIDA ..... 776                                |
| <b>Nadira Gulyamova</b>  | <b>Arzayim Utambetova</b>   |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARI XODIMLARIDA TASHKILIY XULQNI SHAKLLANTIRISH ..... 701   | THEORETICAL BASES OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING ..... 781   |
| <b>Samadjon Ilmurodov</b>  | <b>Xojjakbar Uzoqboyev</b>  |
| "KASB" TUSHUNCHASINING FALSAFIY, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MANBALARDAGI TALQINI ..... 705                                | TABIYY FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANISH MUMKIN BO'LGAN ANIQ TARIXIY MISOLLARNING PEDAGOGIK JIHATLARINI TIZIMLI TAHLIL QILISH ..... 785               |
| <b>Dildora Isayeva</b>   | <b>Kosiyat Xakimova</b>   |
| TALABALARDA SANOPEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ..... 708  | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI INGLIZ TILI O'QITISHDA KOMMUNIKATSIIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI SAMARALI YOLLARI ..... 788                      |
| <b>Dilafruz Jabborova</b>  | <b>Alisher Yunusov</b>  |
| ANALYSES OF DEVELOPING WRITING COMPETENCE BY INTEGRATING LANGUAGE SKILLS ..... 713                                     | IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARNING ROLI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ..... 791   |
| <b>Dilafruz Jurayeva</b>   | <b>Шахноза Хайитова</b>   |
| TA'LIM-TARBIYA SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI ..... 715                         | МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ..... 796   |
| <b>Madinaxon Arslanova</b>   | <b>Murot Isokov</b>   |
| MAKTAB TA'LIMI SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF AQLI ZAIF O'QUVCHILAR IJTIMOIYLASHUVI ..... 720                            | IJTIMOIY KAPITAL - FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA ..... 801   |
| <b>Shaxnoza Mamatqulova</b>  | <b>Maxbuba Xalmuxamedova</b>  |
| BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI ..... 723  | BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA KASBIY   |
| <b>Nigora Mirzoyeva, Marjona Hakimova</b>  |   |
| MAHMUDXOJA BEHBUDIY ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALASI ..... 728   |   |
| <b>Komiljon Mo'minov</b>   |   |
| TALABALARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KTEATIV KOMPETENTSİYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI ..... 731   |   |

Universal ta'limi faoliyatlarni Elektron axborot ta'lim resurslariga integratsiya qilishning afzalliklari katta bo'lsa-da, ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Texnologik cheklar, raqamli resurslarga kirish imkoniyatidagi tafovutlar va o'qituvchilar tayyorgarligini oshirish ehtiyoji hal qilinishi kerak bo'lgan muhim muammolardir. Shuningdek, o'quvchilarning universal kompetensiyalarni rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlarini samarali baholash uchun innovatsion yondashuvlar zarur.

Xulosa qilib aytganda, universal ta'limi faoliatlarga mos ravishda yaratilgan va joriy etilgan Elektron axborot ta'lim resurslari yanada inklyuziv va samarali ta'lim muhitini yaratishi mumkin hamda o'quvchilarni raqamli davr talablari uchun tayyorlaydi. Kelajakdag'i sa'y-harakatlar texnologik tafovutlarni bartaraf etishga, o'qituvchilar ko'nikmalarini rivojlantirishga va universal ta'limi faoliatlarni Elektron axborot ta'lim resurslari ichida barqaror integratsiyalashni qo'llab-quvvatlaydigan baholash tizimlarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak. Uzluksiz tadqiqotlar, innovatsiyalar va o'qituvchilar, dizaynerlar va siyosatchilar o'rtasidagi hamkorlik orqali Elektron axborot ta'lim resurslari o'quvchilarga umrboqiy ta'lim va muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallahda muhim rol o'ynaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Deterding, s., dixon, d., khaled, r., & nake, l. (2011). From game design elements to gamefulness: defining «gamification.» proceedings of the 15th international academic mindtrek conference, 9-15.
2. Dillenbourg, p. (1999). Collaborative learning: cognitive and computational approaches. Elsevier science.
3. Jonassen, d. H. (2011). Learning to solve problems with technology: a constructivist perspective. Pearson education.
4. Mayer, r. E. (2014). Multimedia learning. Cambridge university press.
5. Mishra, p., & koehler, m. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: a framework for teacher knowledge. Teachers college record, 108(6), 1017-1054.

## **SINF JAMOASI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA)**

**Dilfuza Nurmanova,  
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti,  
Boshlang'ich ta'lim kafedrasи  
mustaqil izlanuvchisi**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchi (bo'lajak boshlang'ich o'qituvchi) larining sinf jamoasi bilan ishlashning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari haqidagi fikr yuritilgan. Tahliliy ruhda yozilgan bu maqola nafaqat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga balki o'quvchilar jamoasi bilan samarali ishslash, jamoada o'zi va jamoa a'zolari uchun qulay muhitni o'rnatishda pedagogik-psixologik imkoniyatlardan keng foydalana olish, o'qitishda natijadorlikka erishishni istagan barcha pedagoglar uchundir.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, o'quvchilar jamoasi, kollegial, direktiv, neytral, dars mashg'uloti, kommunikativ, maqsad, psixologik, muammo, rivojlanish.

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются уникальные педагогические и психологические особенности работы с классным коллективом учителей начальных классов (будущих учителей начальных классов). Данная статья, написанная в аналитическом духе, предназначена не только для будущих учителей начальной школы,

но и для эффективной работы с группой учащихся, умения широко использовать педагогические и психологические возможности в создании комфортной среды для себя и членов коллектива. группа, она для всех педагогов, которые хотят добиться результатов в обучении.

**Ключевые слова:** Учитель, ученический коллектив, коллегиальный, директивный, нейтральный, урок-деятельностный, коммуникативный, целевой, психологический, проблемный, развивающий.


#### Annotation

*This article discusses the unique pedagogical and psychological features of working with the class team of primary school teachers (future primary school teachers). This article, written in an analytical spirit, is intended not only for future elementary school teachers, but also for effective work with a group of students, the ability to widely use pedagogical and psychological opportunities in establishing a comfortable environment for themselves and members of the group, it is for all pedagogues who want to achieve results in teaching.*

**Key words:** Teacher, student group, collegial, directive, neutral, lesson activity, communicative, goal, psychological, problem, development.

O‘qituvchilik bu – mohiyatan faqat bilim beruvchi kasb bo‘libgina qolmay, uning ijtimoiy mas’uliyati ham juda yuqori sanaladi. O‘qituvchilik jamiyatdagi muhitni sog‘lomlashtiruvchi yuksak vazifalardan biri sanaladiki, uning maqsadi ta’lim oluvchilarda insoniylikni tarbiyalash, ijtimoiy ma’noda uning shaxsiyatini qaror toptirishdan iborat. Mazkur kasbdagi hayot qalb, ruh va jismning tinimsiz mehnati bilan kechadi. Boshlang‘ich ta’lim maktab o‘quvchilarini umumiy ta’limga tayyorlashning poydevori sifatida qaraladigan dastlab ta’lim bosqichchiki, bunda ta’limning ustuvor vazifasi o‘quvchilarda muayyan bilimlarni, umumiy ko‘nikmalarni va kompetentsiyalarini shakllantirish bilan bir qatorda bolaning shaxsiyatini yanada mukammal shakllantirish, uning aqliy-kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishini ta’minalash, ayniqsa, ularni ijodiy va mustaqil fikrlashga o‘rgatish sanaladi. O‘quvchilarining fikrlash va aqliy rivojlanishi ularning faol bilimlarini shakllantirish bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi. Chunki bilim bu – fikrlashning asosi bo‘lib, mavjud bilimlarning shakllanishi jarayonida maktab o‘quvchilarining tafakkuri ham shakllanib boradi[1].

Davlat ta’lim standartlari talablariga tayangan holda boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida ta’limiy natijalar sifatida mukammal nutq, o‘qish, hisoblash kompetentsiyalari, real olam haqidagi umumbashariy bilimlar, yetarli darajada rivojlangan tafakkur, tasavvur, xotira hamda ijodiy o‘zini namoyon qila olish qobiliyatini shakllantirish va rivojlanantirish asosiy maqsadlardan sanaladi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yilgan talablar ham zamonga mos tarzda o‘zgarib borishi tabiiydir. Ilgari ularning roli, tor ma’noda, ko‘pincha maktab o‘quvchilariga fan bilimlari asoslarini va eng oddiy akademik ko‘nikma va malakalarni o‘rgatish sifatida tushunilgan bo‘lsa, bugungi kunda bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablar maqsad emas, balki vosita – o‘quvchini rivojlanantirish maqsadiga erishish sharti sifatida qaralmoqda. Buning uchun darsning mantiqiyligi nafaqat fan, balki psixologik va texnologik jihatdan ham saqlanishi talab etiladi. Shu asnoda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining roli ham kengayib bormoqda (1.1-rasm).



### 1.1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining zamonaviy ta'limidagi faoliyat ko'lami

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentsiyasi, ularni tayyorlash jarayoni, boshlang'ich sinf ta'limi va tarbiyasi doirasida bir qator rus olimlari o'z izlanishlarini olib borgan bo'lib, ularda boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining hamda boshlang'ich sinflarda darslarni o'tkazishning psixologik-pedagogik xususiyatlari yoritilgan[3].

Hozirgi kun tadqiqotlarini kuzatish shundan dalolat beradiki, o'quvchi potentsialini ro'yobga chiqarishda maksimal samaraga faqat qo'llaniladigan o'qitish usullari, vositalari va shakllari ularning aqliy rivojlanishining individual va yoshiga bog'liq xususiyatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lsagina erishiladi. Turli mamlakatlardagi davlat maktablarida o'quvchilarning o'qishdagi qiyinchiliklari, darslarni o'zlashtira olmasliklari ta'lim jarayonida muloqot bilan bog'liq bo'lgan ruhiy xususiyatlardan kelib chiqmoqda. Psixologik-pedagogik ishlarni tahlil qilish bu – o'qituvchilar uchun umumiy kasbiy muammo ekanligini ta'kidlashga asos beradi[10].

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga qo'yiladigan talablar jamiyatning o'zgarayotgan talablariga mos ravishda ortib bormoqda va bu ta'lim jarayonining maqsadiga aylandi, aslida bu bolaning rivojlanishi uchun vosita bo'lishi kerak. Bugungi kunda o'qituvchi uchun, birinchi navbatda, metodik vositalar to'plami va bilimlarni o'quvchiga yetkazish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda bola shaxsiyatining psixologik xususiyatlari ikkinchi planda qolib ketmoqda. Zamonaviy o'qituvchining psixologik va pedagogik madaniyati ko'pincha faqat individual psixologik atamalarni bilish bilan chegaralanadi. Bugungi kunda ba'zi o'qituvchilar ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchining psixologiya yoki u o'rgatadigan fan bo'yicha bilimlarining ustuvorligi o'quvchilarning yoshiga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun fanni o'zlashtirishdan ko'ra psixologiyani o'rganish muhimroqdir; fanni mukammal o'zlashtirish esa yuqori sinflarda yetakchi va hal qiluvchi omilga aylanadi[3]. Ushbu masalaga munosabat bildirish, aniq fikr aytish maqsadga muvofiq emas, bizning nazarimizda.

O'quv jarayoni ikki tomonlama hodisa bo'lib, agar ta'lim natijasi qoniqarsiz bo'lsa, unda faqat o'quvchini ayblab bo'lmaydi. O'quvchining ta'limidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi uni qanday o'rgatganiga va qanday maqsadlarga erishganiga bog'liq. O'quvchining mustaqil va ijodiy shaxsini rivojlantirish faqat o'qituvchi bilan samarali hamkorlikda amalga oshiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining o'zaro munosabat

muhiti va uslubi o‘quvchining aqliy rivojlanishiga sezilarli ta’sir qiladi. Aynan o‘qituvchi tanlagan o‘zaro ta’sir uslubi sinf o‘quvchilari jamoasining ichki imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

Qator psixologlarning ta’kidlashicha, u yoki bu o‘qituvchi sinfida ta’lim olayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari shaxsiyatining shakllanishida o‘zaro munosabat, harakat uslubi muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Bugungi kunda bu muammo, ayniqsa, ta’limning boshlang‘ich bosqichida dolzarbdir, chunki o‘qituvchi o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan birinchi shaxsdir.

Bugungi kun ta’lim amaliyotida o‘qituvchi va u ta’lim berayotgan sinf o‘quvchilari jamoasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, hamkorlikning uch turi mavjud: kollegial, direktiv va neytral.

O‘zaro hamkorlikning kollegial turi o‘quvchilarning faol va ijodiy aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday o‘zaro aloqada o‘quvchi intellektual va jamoaviy faoliyatning ishtirokchisi sifatida harakat qiladi. O‘zaro munosabat jarayonida o‘qituvchi tomonidan quyidagilar kuzatiladi: xayriyohlik, vazminlik va o‘quvchining tengdoshlariga yo‘naltirilganligi.


O‘zaro ta’sirning direktiv turida o‘quvchining faoliyati o‘qituvchi tomonidan kategoriyali aloqa usuli orqali susaytiriladi, bu didaktogeniyaning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan salbiy hissiy ta’sir shakllari bilan izohlanadi. Ushbu turdagi o‘zaro munosabat davomida o‘quvchi o‘z harakatlarini ko‘rsatmaydi, u odatda, kattalar tomonidan tartibga solinadi.

O‘zaro ta’sirning neytral turi o‘quvchilar faoliyatini faollashtirishga hissa qo‘shmaydigan va tabiatan befarq bo‘lgan xayriyoh-neytral munosabatlar bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, o‘zbek tadqiqotlarini kuzatganimizda “o‘quvchi-o‘qituvchi” tizimidagi o‘zaro munosabat, hamkorlikning uch turi ham aniqlanganligiga guvoh bo‘lamiz (1.2-rasm).

Umuman ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlar, hamkorlik va o‘zaro ta’sir masalalari qator izlanishlar predmetiga aylangan bo‘lib, ularni tahlil etgan holda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning optimal ko‘rinishi ro‘yobga chiqishi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida quyidagi ko‘nikmalar rivojlanishi maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

- o‘quvchini tinglash qobiliyati;
- pedagogik o‘zaro munosabat, ta’sirning kommunikativ holatini boshqarish qobiliyati;
- o‘quvchilar yashirin motivlari va psixologik shakllarini “kashf etish” qobiliyati.



**1.2-rasm. “O‘quvchi – o‘qituvchi” tizimidagi o‘zaro munosabat ko‘rinislari**

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z sinf o‘quvchilari bilan ishlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi talab etiladi:

- o‘zaro munosabat turi va o‘quvchilarda intellektual fazilatlarning rivojlanish darajasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini inobatga olish;
- o‘zaro munosabat jarayoni barcha psixik jarayonlarga ta’sir qilishiga e’tibor qaratishi;
- o‘zaro aloqada o‘quvchilarni ham muloqotni o‘rnatish, ham o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun turli xil xarrog‘batlantirish shakllaridan foydalanish hal qiluvchi rol o‘ynashini e’tibordan qochirmaslik;
- o‘zaro munosabatning eng samarali turi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanishini inobatga olish: munosabatning aniqligi; hissiy yaqinlik; aqliy aloqa (o‘zaro manfaatdorlik);
- o‘qituvchi tomonidan pedagogik rahbarlik doimo o‘quvchilarning kognitiv-bilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan hissiy holatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lishi kerakligi yoddan chiqarmaslik talab etiladi.

Hozirgi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yilgan bu kabi talablar, darslarning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘plab olimlarning tadqiqotlariga asos bo‘lgan. Ularda boshlang‘ich sinflarda darslarni o‘tkazishning psixologik-pedagogik xususiyatlari bir qator aspektlarda o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tashkiliy, kognitiv va mantiqiy ko‘nikmalarni egallab, har tomonlama ta’lim faoliyatini (o‘rganish qobiliyatini) rivojlantiradilar. Maktab ta’limining ta’lim natijalari bu – haqiqiy dunyo haqidagi umumiy bilimlar, uning aloqalari va bog‘liqliklari, rivojlangan hissiy qobiliyatlar, fikrlash, tasavvur, xotira va ijodiy o‘zini namoyon qilish qobiliyatida ko‘zga tashlanadi[12].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘quvchining tabiatga xos ijobiy qobiliyatlarini, imkoniyatlarini va ularni yaxshilash istagini uyg‘otish va rivojlantirishga yordam berishni maqsad qiladiki, shunda ular ta’lim olgan holda fuqarolik burchini bajara oladilar. Bu maqsadga har bir inson hayotining muhimligiga ishonch hosil qilgan, har qanday o‘quvchiga yordam bera oladigan va yordam berishni xohlaydigan o‘qituvchi erisha olishi mumkin.

O‘qituvchi o‘z darsini rejalshtirayotganda, birinchi navbatda, an’naviy dars rejalaridan voz kechishi kerak, chunki ularda o‘qituvchining individual qobiliyatları yoki ushbu o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud emas. Shuningdek, turli noan’naviy (shaxsga yo‘naltirilgan) pedagogik vosita va usullar orqali ijodiy turdag'i darslarga e’tibor qaratish lozim. Bunda har bir o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadigan vizual vositalar muhim rol o‘ynaydi. Zamonaqiy sharoitda darsda yangi shakl va uslublardan foydalanish imkoniyatlarini namoyon etishi maqsadga muvofiq: o‘qituvchining darsga tayyorgarligini ham, darsning o‘zini ham yangi darsga o‘tkazish imkonini beradigan kompyuter dasturlaridan foydalanish talab etiladi.

Didaktik imkoniyatlari jihatidan asoslangan qo‘srimcha materiallardan foydalanishga e’tibor qaratish zarur, deb hisoblaymiz. Qo‘srimcha material o‘quv va rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan hollarda, undan foydalanish darsning o‘quv maqsadi, ma’lum sinfning o‘ziga xos sharoitlari talab qilingan hollarda qo‘llanilishi mumkin. Bunday material differentsial vazifalar, ijodiy mashqlar, hozirgi voqealar bilan bog‘liq ma’lumotlar, o‘quvchilarning hayotiy kuzatishlarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar va boshqalar bo‘lishi mumkin[14].

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan sinfni samarali boshqarishda ochiq muloqot, hamkorlik va o‘quvchilarning faol ishtirotini birinchi o‘ringa o‘yadigan strategik yondashuvlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shuni esda tutish kerakki, darsning samaradorligiga o‘qituvchi tomonidan belgilangan dars maqsadi ham ta’sir qiladi. Ob’ektiv ravishda har bir darsning maqsad va vazifalarini tobora murakkablashib borayotganini ko‘rmasdan va tushunmasdan bo‘lmaydi. Bu maktabning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy vazifalari: o‘quvchilarni tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar, zarur amaliy ko‘nikmalar bilan “qurollantirish”, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlarini, moyillik va qiziqishlarini rivojlantirish, ularni butun umri davomida bilim olishga tayyorlashning tabiiy natijasidir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o‘quv, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy maqsadlar namoyon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, darsning samaradorligini tavsiflaydi. Mazkur aspekti tadqiq etgan I.P.Podlasey[8] quyidagi mezonlarni taklif etadi (1.3-rasm).



### 1.3-rasm. Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligi mezonlari (I.P.Podlasey)

Bu kabi mezonlarga to'liq javob beruvchi darsni loyihalash va olib borish muayyan darajada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchisidan ko'p narsani bilish va ko'p narsaga qodir bo'lish, chinakam xohish, o'qituvchilik vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish va eng muhim, pedagogik tafakkurning yangi bosqichiga chiqish talab etiladi. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamонавиғи назаријаси ва амалийоти услуби, умумија педагогик, дидактик ва психолојик тарбиялар тизимига асосланади. Илмији тараққијотнинг о'sib борайотган сур'атлари ва ахборот жамиятининг ривожланishi bir qator kompetentsiyalarni шакллантирish, ilmiy tadqiqot mantig'ini tushunish, tadqiqotchilik ko'nikmalarini шакллантирish заруратини belgilab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Степанов Е.Н. Педагогу о современных подходах и концепциях воспитания. – М.: Сфера, 2003. 160 с.;
- Усмонова У.А. Бошлангич синф ўқувчиларининг ижодий тасаввурини ривожлантириш. Пед.фан.б.фалс.д-ри...дисс. – Тошкент, 2019. – 152 б.
- Холодкова О.Г. Особенности развития ценностного отношения к учителю на протяжении младшего школьного возраста. // Психология обучения (Журнал). – 2012. – № 7. – С. 57-65.;
- Трубайчук Л.В. Портрет учителя начальных классов. // Начальная школа. – 2006. – № 6. – С. 20-23.; Ситникова Л.Д. Формирование информационно-коммуникационной компетентности будущих учителей начальных классов. // Информатика и образование. – 2010. – № 2. – С. 97-102.;
- Сергеев Ю.Н. Поэтапное развитие инфокоммуникационной компетентности учителя начальных классов. // Мир образования- образование в мире. – 2011. – № 3. – С. 27-31.; 35.
- Половникова Н. Работа учителя начальных классов с социально и педагогически запущенным ребенком, и его семьей. // Социальная педагогика. – 2007. – № 2. – С. 76-79;

7. Плесовских М.Н. Современные формы курсовой подготовки в системе профессионально-личностного развития учителя начальной школы. // Педагогическое образование и наука. – 2008. – № 3. – С. 61-64.;
8. Николаева М.В. Образовательные технологии подготовки педагога к личностному развитию младшего школьника. // Начальная школа: Плюс до и после. – 2013. – № 1. – С. 3-7.;
9. Кузовлев В.П. Основные пути совершенствования профессиональной подготовки учителя начальных классов. // Начальная школа. – 2006. – № 7. – С. 4-9.
10. Қодиров У. Ўқитувчининг психология компетенциясига доир айрим мулоҳазалар // Современное образование (Узбекистан). 2015. №4.
11. Bodalev A.A. O'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish. // Umumiy ta'lim va kasb-hunar mакtablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari nuqtai nazaridan o'qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari: Butunitifoq. ilmiy-amaliy konf: hisobtlarning tezislari. – Poltava, 1985. – B. 14
12. Schocker-von Ditzfurth M. Unterricht verstehen. Medienpaket zur Förderung reflektierter Unterrichtspraxis. Modul 1: Erfahrungswissen reflektieren und den eigenen Unterricht weiter entwickeln. – München: Goethe-Institut, 2002. – S.7.
13. Wright T. Classroom Management in Lanauage Education. – Hounds Mills: Palgrave Macmillan, 2005. – P. 17.
14. Hallet W. Didaktische Kompetenzen. Lehr- und Lernprozesse erfolgreich gestalten. – Stuttgart: Klett, 2006. –P. 36.
15. Подласый И. П. Педагогика.. – М. : Владос, 1999. – с. 89

## TASVIRIY SAN'ATDA DASTGOHLI RANGTASVIRNING O'RNI VA AXAMIYATI

**Bobir Nusharov,  
Guliston davlat universiteti  
katta o'qituvchisi**

### **Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli faydalanan negizida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy xamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan biri ekanligini to'g'risida fikirlar yuritilgan. Ushbu maqolada tasviriy san'atda dastgohli rangtasvir janrining ahamiyati va uning ijodiy jarayonlardagi o'rni tahlil qilinadi. Dastgohli rangtasvir san'atning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ijodkorlarga rang va shakllar orqali o'z dunyoqarashi va hissiyotlarini ifoda etish imkonini beradi. Zamonaviy san'atda ushbu texnika o'zining dolzarbligini saqlab qolgan holda yangi ijodiy yondashuvlarga yo'l ochadi.

**Kalit so'zlari:** perspektiva, rangtasvir, moybo 'yoq, zamonaviy ta'lim, pedagogik dolzarblik, tasviriy san'at.

### **Аннотация**

В статье рассматривается идея о том, что одной из важных задач является создание теоретических и практических основ процесса развития профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства на основе эффективного использования возможностей современных образовательных технологий и созданных образовательных технологий. методические комплексы. В данной статье анализируется значение жанра станковой живописи в изобразительном искусстве и его роль в творческих процессах. Станковая живопись – одно из важных направлений искусства, позволяющее